

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020. I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SANGINOV ZAFAR ABDUGANIEVICH

**KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING TASHQI SAVDO
FAOLIYATDAGI ISHTIROKI SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor GAFUROV U.V.**

Toshkent – 2024 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
 I KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TASHQI BOB. SAVDO FAOLIYATDAGI ISHTIROKINING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	 15
1.1. Tashqi savdo faoliyatning mazmuni va xo'jalik yuritish miqyoslari bilan bog'liq jihatlari.....	15
1.2. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi savdo faoliyatdagi ishtiroki asosiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.....	25
1.3. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi savdo faoliyatdagi ishtiroki samaradorligini baholashning uslubiy masalalari.....	36
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	50
 II O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK BOB. SUBYEKTLARI TASHQI SAVDO FAOLIYATDAGI ISHTIROKINING SAMARADORLIGI HOLATI.....	 52
2.1. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik sub'ektlari tashqi savdo faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.....	52
2.2. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi savdo faoliyatdagi ishtirokidagi asosiy tendentsiyalar.....	60
2.3. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tashqi savdodagi ishtiroki samaradorligining tashqi savdo aylanmasi tarkibiy tuzilishi modellariga bog'liqligi.....	70
2.4. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi savdo faoliyatdagi ishtiroki samaradorligini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish.....	79
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	90
 III O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK BOB. SUB'EKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATDAGI ISHTIROKI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	 92
3.1. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi savdo faoliyatdagi ishtirokini rag'batlantiruvchi mexanizmlarni takomillashtirish.....	92

3.2.	Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi savdo faoliyati infratuzilmasini takomillashtirish.....	105
3.3.	Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi savdo faoliyatdagi ishtiroki samaradorligini oshirish istiqbollari.....	115
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	127
	XULOSA.....	129
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	132
	ILOVALAR.....	142

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida global raqobatning keskinlashuvi sharoitida milliy iqtisodiyot salohiyatidan samarali foydalanish ko'p jihatdan kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirmoqda. Buning natijasida keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning tashqi savdo faoliyatidagi ishtirokinining faollashuviga olib kelmoqda. “Ekspertlarning bahosiga ko'ra, sanoat eksportida kichik va o'rta korxonalarning ulushi Germaniya va Niderlandiyada 40% atrofida, Italiyada taxminan 22-24%, AQSh va Yaponiyada 14-16%ni tashkil etadi. Agar ularning yirik firmalar eksport qiluvchi tayyor mahsulotlarning komplektatsiyasidagi ishtirokini hisobga olinsa, u holda ularning ulushi Italiyada 65%, Frantsiyada 55%, Yaponiyada 45%ga qadar ortadi”¹. Global raqobatning kuchayishi sharoitida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi savdo faoliyatdagi ishtiroki samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda globallashuv hamda xalqaro darajadagi raqobat sharoitida kichik biznes sub'ektlarining tashqi savdo faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Milliy raqobatbardoshlikni ta'minlashda kichik biznesning tashqi savdo faoliyatidagi ishtirokini kengaytirishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish, tashqi savdo faoliyati infratuzilmasining samarali tizimini hamda tashqi savdo faoliyatiga ixtisoslashuvni rag'batlantiruvchi qulay muhit yaratish, tashqi savdo operatsiyalarini raqamli platformalarga o'tkazish, kichik biznes sub'ektlarining tashqi savdo faoliyatini rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni yo'lga qo'yish, kichik korxonalarning tashqi savdo faoliyatidagi ishtirokini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda etakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy

¹ Кузнецова Е.В., Морковина С.С. Экспортно – ориентированное малое предпринимательство: проблемы и направления их решения. - <https://scienceforum.ru/2015/article/2015008941?ysclid=lwnd2sdpfr442327106>